

**“O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi majlisining  
BAYONNOMASI № 112**

*“O‘zagrosug‘urta” AJ  
Boshqaruvining majlislar zali*

2022-yil 1-avgust,  
soat 14-00

<b>Raislik qiluvchi:</b>	Sh. Rasulov – “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi raisi
<b>Boshqaruv a’zolari:</b>	M. Mirabzalov, A. Yusupov, B. Axadov, A. Jumayev, B. Sodiqov, M. Nosirov
<b>Taklif etilgan:</b>	P. Turamuratov, B. Hamroyev
<b>Majlis kotibi:</b>	D. Erkinjonov

**KUN TARTIBI:**

**“O‘zagrosug‘urta” AJda komplayens nazorat tizimini  
samarali yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida**

---

(Sh. Rasulov, P. Turamuratov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Boshqaruvning Komplayens nazorat departamenti direktori P. Turamuratov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6013-sonli Farmoniga asosan “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvida Komplayens nazorat departamenti “O‘zagrosug‘urta” AJ aksiyadorlarining 2021-yil 29-iyundagi 56-sonli umumiyligida yig‘ilishi bayonnomasi qarori bilan tashkil etilganligini ma’lum qildi.

O‘tgan davr mobaynida tizimni samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida qator ishlar amalga oshirilgan, shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2022 yil 10 iyundagi 03-07/2566-sonli korrupsiyani kelitirb chiqaruvchi sabablarini bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risidagi taqdimnomasi kelib tushganligi hamda mazkur taqdimnomada ko‘rsatilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish, shuningdek kelgusida shu kabi kamchiliklarga yo‘l qoymaslik bo‘yicha Komplayens nazorat departamenti faoliyati tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi va ushbu yo‘nalishdagi qator ichki me’yoriy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, yangilarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish talab etilmoqda.

Shunga ko‘ra, muhokamaga kiritilayotgan barcha lokal hujjatlar takomillashtirilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlar namunalari asosida qayta ishlab chiqilganligi, uning mazmun-mohiyati haqida batafsil axborotlar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Boshqaruv majlisi **qaror qiladi**:

1. Jamiyat Boshqaruvining Komplayens nazorat departamenti direktori P. Turamuratovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin va inobatga olinsin.

2. "O'zagrosug'urta" AJda komplayens nazorat tizimini samarali yo'lga qo'yish maqsadida:

2.1. Komplayens nazorat departamenti nizomi (yangi tahrirda) **1- ilovaga**;

2.2. Komplayens nazorat departamenti xodimlarining lavozim Yo'riqnomasi **2- ilovaga**;

2.3. "O'zagrosug'urta" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati **3- ilovaga**;

2.4. Korrupsiya xavf-xatarlarini baholash Uslubiyoti **4- ilovaga**;

2.5. Jamiatda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom **5- ilovaga**;

2.6. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida xabarlarni qabul qilish Reglamenti **6- ilovaga**;

2.7. Korrupsiya qarshi kurashish sohasida o'qitish bo'yicha Yo'riqnomasi **7- ilovaga**;

2.8. Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnomasi **8- ilovaga**;

2.9. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnomasi **9- ilovaga**;

2.10. Korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti **10- ilovaga**;

2.11. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi to'g'risida hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom **11- ilovaga**;

2.12. Xizmat tekshiruvlarni o'tkazish bo'yicha Reglament **12- ilovaga**;

2.13. Jamiat tizimi xodimlarining odob-axloq qoidalari **13- ilovaga**;

2.14. Odob-axloq to'g'risidagi komissiya Nizomi **14- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin va 2022-yil 1-avgustdan amalga kiritilsin.

3. Jamiat Boshqaruvi majlisining 2021-yil 31-martdagi 49-sonli bayonnomasi hamda Boshqaruvning 2021-yil 22-oktabrdagi 162-sonli buyurug'i 2022-yil 1-avgustdan o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

4. Yuqorida qabul qilingan hujjatlar Komplayens nazorat departamenti (**P. Turamuratov**) tomonidan tegishli tuzilmaviy bo'linmalarga hamda Jamiatning hududiy filiallariga ijro va ma'lumot uchun kiritilsin.

5. Ushbu bayonnomma Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar va investitsiya departamenti (**S. Saydaxmedov**) tomonidan Jamiatning Kuzatuv kengashiga ma'lumot uchun taqdim etilsin.

6. Mazkur bayonnomma qarori ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi

 Sh. Rasulov